



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

No. 2

NOZMUNCHOQNING TARIXI VA MADANIY AHAMIYATI

Hojiqurbonova Sevinch Sanjar qizi,

Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nozmunchoqning kelib chiqish tarixi, uning qadimiy madaniy ildizlari hamda turli xalqlar orasida tutgan o'rnini yoritilgan. Shuningdek, nozmunchoqning asosiy turlari, ularning shakli, ranglari va qo'llanilish sohalari haqida ma'lumot beriladi. Nozmunchoqning nafaqat bezak buyumi, balki yomon ko'zdan himoya qiluvchi ramz sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: nozmunchoq, ko'zmunchoq, tarix, turlar, madaniyat, himoya, bezak

ИСТОРИЯ И КУЛЬТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ОБЕРЕГА «НАЗАР» (ГЛАЗ ОТ СГЛАЗА)

Хожикурбонова Севинч Санжар кизи,

Студентка Бухарский государственный педагогический институт

Аннотация: В данной статье рассматривается история происхождения назарного амулета (нозмунчок), его культурные корни и значение в жизни различных народов. Также представлены основные виды амулета, их формы, цвета и области применения. Особое внимание уделяется значению нозмунчока как символа защиты от сглаза, а не только декоративного элемента.

Ключевые слова: нозмунчок, амулет, история, виды, культура, защита, украшение

HISTORY AND CULTURAL SIGNIFICANCE OF THE EVIL EYE BEAD

Hojiqurbonova Sevinch Sanjar qizi,

Student of Bukhara State Pedagogical Institute

Annotation: This article explores the origin and historical development of the nazar bead (nozmunchoq), as well as its cultural significance among different nations. It also describes the main types, shapes, colors, and uses of the object. Special attention is given to its role as a protective symbol against the evil eye, in addition to being a decorative item.

Keywords: nazar bead, amulet, history, types, culture, protection, decoration

Biser munchoqlardan taqinchoqlar yasash bundan 600 ming yil ilgari qadimgi Misrda paydo bo'lgan. Aynan shu mamlakat aholisi biser yasaladigan shishani ilk bor o'ylab topishgan. Misr kosiblari tomonidan yaratilgan qo'l mehnatining nodir namunalari bugungi kungacha saqlanib kolgan. Odatda biser to'qish yo'li bilan ishlangan bu buyumlar taqinchoqlar, munchoqlar kiyim detallari shaklida bo'lgan.

Biserni ommaviy ishlab chiqarish, shuningdek kiyimlarga Biser qadab tikishning keng yoyilishi XVIII asrning oxirlari va XIX asr boshlariga kelib jadallashdi. Kiyimlarni Biserlar bilan bezash aholining barcha qatlamida hayratlanarli tarzda chuqur qiziqish uyg'otdi. U faqatgina chevar ayollarning emas, balki saroyda malika yoki qirolicha huzurida bo'lgan, dvoryan oiladan chiqqan ayollar – freylinalarning katta yer egalari – pomeshchiklarning xotinlari, rohibalar va dehqon ayollarning an'anaviy mashg'ulotiga aylandi. Ular Biserdan noqoshnik – qadimgi rus ayollarning yarim doirasimon soyabonli bosh kiyimi, bel bog'lar, katmonlar, kiyimlar, sumkalar, kiset – tamaki xaltalar, chilim nayiga, vaza va hassalarga g'illoflar to'qishgan. Muzeylarda shunday matolardan tikilgan siyohdonlar, butilkachalar va stakandonlarni ko'rish mumkin. Biserda ko'pincha saroy devorlarini, jihozlarni, but qoplamasini bezashgan.

Biser to'qish san'ati usullari bugungi kungacha yetib kelgan. Shu bilan birga Biser to'qish yo'li bilan tikilgan bezaklar, taqinchoqlarning zamonaviy usullari ham kashf etildi. Zamonaviy moda olamiga kirib kelayotgan yangi buyumlar, kiyimlar va aksessuarlarning aksariyatida qisman yoki butunlay Biser san'ati qo'llanilganligining tez- tez guvohi bo'lib turamiz. Rossiyalik dunyoga mashhur modelyer Valenten Yudashken o'z kiyimlarining butunlay Biser qoplab tikilishiga alohida urg'u beradi. Emanuel Ungaro va Bernar Perrilar ular uchun yaratilgan kiyimlarning olov tiliga monant qilib tikilgan yirik oma munchoqli bo'lishini xush ko'rishadi. Jan-Pol Gote Biser va boshqa munchoqlardan sumkalarni bezashda ko'p foydalanadi. Osimar Versolato esa ularni belbog' va yoqqalarni bezashda qo'llagan. Kristian Lakruan biserdan shim va nimchalari uchun alohida detallar o'ylab topishga ishqiboz. Poko Raban Biserlardan butun boshli ko'ylak ixtiro qilgan. Ayollarning Biserdan tayyorlangan turli tuman taqinchoqlarining esa son sanog'i yo'q.

Kashta kabi bu ham moda bo'lib kirib keladi, goh chiqib ketadi. Yaqin yaqinlargacha kashta va munchoqlar bilan bezatishni ortiqcha ish va ortiqcha hasham deb qaralgan, 70- yillarga kelib kashta yana moda bo'lib qaytdi. Hattoki bu usulda bezatilgan mahsulotlar o'ta xaridorgir bo'ldi.

Biserlar bilan bezash insonni aqlan chidamli, sabr toqatli, nazokatli, didli bo'lishga undaydi. Ko'pincha ayollarimiz asab kasalliklariga duchor bo'lganda vrach ularga to'qish, kashta tikish, munchoq va pistonlar tikishni tavsiya etadi, chunki bu ish asablarni tinchlantiradi juda ham yaxshi mashg'ulot bo'lib hisoblanadi. Bu ish bilan band bo'lgan kishining hayolida hech qanday yomon o'y bo'lmaydi u faqat Biser tikishdan oldin uning umumiy badiiy yechimini o'ylab, ko'rish bezakning, undagi ayrim bo'laklarining buyum yuzasiga qanday joylashtirishni elementlarining nisbatlarini qanday rangda tikishni yani kompazitsiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani aniqlab olish kerak. Kompazitsiya xarakteri ko'proq rasmga naqshdagi alohida elementlar yoki element gruppalarining qonuniy almashinishiga bog'liq bo'lib, bu kompozisiyaning ifodali bo'lishiga aniq idrok etilishiga yordam beradi.

Piston va munchoq naqshini tuzishda geometrik shakllar (uchburchak, kvadrat, yulduzcha, aylana, va h.klar) dan shuningdek to'liqsimon siniq chiziqlar, spirallardan, o'simlik mativlari barglar, gullar, shohlar, daraxtlardan shuningdek umumlashgan odam qiyofasidan foydalanish mumkin. Baza bezakda motivlar qaytarilmaydi. Bezak simmetrik va assimetrik asosida tuzilishi mumkin. Bunday bezak ham naqshli bo'ladi.

Qo'lda piston va munchoqlarni tikish uchun juda oddiy asboblardan kerak. Bular maxsus ingichka igna, angishvona, qaychi, santimetr, o'tkir uchli dukcha, kerdi, flezilin, yoki dublerin kerak.

Biserning ko'plab turlari mavjud, uning dumaloq sharksimon va yassisimon shakldagilari mavjud bo'lib, ular shisha plastmassadan yasaladi.

Nozmunchoq (Biser) to'qish san'ati usullari bugungi kungacha etib kelgan. Shu bilan birga, Biser to'qish yo'li bilan tikilgan bezaklar, taqinchoqlarning zamonaviy usullari ham kashf etildi.

Rubka – bu Biserning bir turidir. Uning boshqa munchoqlardan farqli jihati shundaki, uning chetlariga ishlov berilmagan hamda yetarlicha o'tkir bo'ladi. Ular yordamida biror narsani kesa olish dargumon, ammo rubkadan taqinchoq tayyorlash jarayonida uning o'tkir qirralari bilan juda ham ingichka bo'lgan leska (qarmoq ipi) hamda iplarni uzish mumkin. Bu taqinchoq tayyorlash uchun zarur bo'ladigan xom ashyoning sifatini aniqlash uchun amalgam oshiriladi. Rubkaning, asosan, dumaloq shakldagisi emas, balki qirralanganidan ko'proq foydalaniladi. Chunki uning qirralari oddiy Biserga qaraganda oftob nurlari ostida yorqinroq va chiroyli tovlanadi.



1-rasm. Rubkaning ikki xil ko'rinishi.

Steklyarus – istalgan turdagi boshqa biror munchoq turi bilan adashtirib bo'lmaydi. Chunki u mayda naycha shaklidagi shisha munchoq ekanligi bilan boshqalardan alohida ajralib turadi. Uning uzunligi turlicha bo'lishi mumkin. Shunisi qiziqarlilik, uni oldinlari hozirgiga nisbatan ancha kalta ko'rinishda ishlab chiqarishgan.

Munchoq (busina) – Biserga juda ham o'xshab ketadi, biroq hajmi kattaroq bo'ladi. Munchoqlar Biserga qaraganda bir oz, hatto 100 barobar katta bo'lishi ham mumkin. Ular shisha, billur, plasmassa, yog'och, sopol va tabiiy toshlardan yasaladi. Busina – bu aslida yovvoyi hayvon so'yloq tishini teshib ishlov berilgan narsa. Munchoqlarni, hattoki yangi olma urug'laridan ham yasab olish mumkin. Buning uchun ularga igna yordamida ip o'tkaziladi, batamom quriguncha quritiladi, hamda tirnoq uchun mo'ljallangan rangsiz lak bir yoki ikki qavat qilib surtiladi.



2-rasm. Munchoq(busina)ning ko'rinishi.

Istalgan turdagi taqinchoqni yasashda kerak bo'ladigan materiallardan tashqari, ma'lum bir turdagi taqinchoqni to'qishda zarur bo'ladigan mayda-chuydalar ham mavjud bo'lib, ularni esdan chiqarib qo'yish ish bermaydi.

Har qanday marjon shodasini to'qib bo'lgach, ish yakunida zamok va maxsus qistirgich (zastejka) yoki tugmalar kerak bo'ladi. Ularning turli o'lcham, shakl va ko'rinishdagisi mavjud.

Tirnoqqa surtish uchun mo'ljallangan *lak* sizga bir qancha vaziyatlarda yordam berishi mumkin:

Birinchidan, tartib bilan va sezilmaydigan qilib shaffof lak surtilgan ip tolasi uzoq vaqtgacha uzilib ketmaydi, chidamli bo'ladi.

Ikkinchidan, lak ignadan ip o'tkazish jarayonini osonlashtiradi. Buning uchun ipning uchiga lak surtiladi, ipning uchi piltalanadi, ozroq, qotgach ignadan osonlik bilan o'tkaziladi.

Uchunchidan, lak surtilgan ipdan ignaning o'rnida ham foydalanish mumkin.

Ingichka simcha (provolochnka) – egiluvchan ashyolarni yasash uchun kerak bo'ladigan material bo'lib, undan gul va o'yinchoqlar kabi narsalar tayyorlanadi. Bunday narsa-buyumlarni yasashda, asosan, mis simdan foydalaniladi.

Qarmoq ipi (leska) – oson tayyorlanadigan bezaklarni yasashda ishlatiladigan material. Odatda, uning yordamida oddiy taqinchoqlar (bilakuzuk va boshqalar), shu bilan birga, hatto o'ta murakkab buyumlar, masalan, qo'g'irchoqlar ham yasaladi. Qarmoq ipi juda ham elastik, shuningdek, o'rta pishiq material. Uni qo'l bilan uzush sim yoki ipni uzishdan ko'ra ancha qiyin.

Ipga tikiladigan taqinchoq va munchoqlar bo'yinga juda ham yarashib turadi. Ular bo'yinning har bir harakatiga mutanosib tarzda alohida jimjimadorlik kasb etadi. Bundan tashqari ipdan g'aladonlar, sumkalar, belbog' va tasmalarga biser tikish jarayonida ham foydalaniladi. Eng maqbuli, kapron yoki armaturali iplardan foydalanish kerak.



3-rasm.Ipga tikladigan biserdan namuna

Mononit – biser tikish jarayonida keng qo'llaniladigan eng zaruriy ashyolardan biri. Uning tarkibi qarmoq ipi va kapron tola aralashmasidan iborat. Bu juda ham ingichka va o'ta pishiq ip. Shu qadar ingichkaligidan uni biserning birgina teshigidan 20 martadan ko'proq o'tkazib tikish mumkin.


Biser to'qishda juda ham ingichka bo'lgan ***igna*** ham kerak bo'ladi. Yaxshisi biser tikish uchun maxsus mo'ljallangan ignadan foydalanish lozim.

Rezinka ip – o'zidan ingichka aylanasimon rezinka qoplami mavjud ekanligi bilan boshqalardan ajralib turadi. U xuddi ipak qurti kabi bir nechta iplar bilan qoplanib olingan. Uning yordamida bilakuzuk munchoqlar tikish juda ham oson. Uning yordamida to'qilgan tayyor taqinchoqlarning oxiriga maxsus qisqichlar o'rnatish shart emas.

Xoh oddiy ip bo'lsin, xoh qarmoq ip bo'lsin, baribir uni kesish uchun **qaychi** kerak bo'ladi. U etarli o'tkir va kichkina bo'lishi, ayniqsa o'tkir uchli bo'lishi lozim. Chunki aynan qaychining o'tkir uchi yordamida qo'l bilan ushlab bo'lmaydigan ip to'larini kesib tashlash mumkin.

Tugmali zanjir.

Munchoqli bezaklar yasashda ust tomoni dumaloq, ost tomonida esa bo'rtiq teshikli “oyoqcha” si bo'lgan tugmadan ham foydalanish mumkin. Bunda unga mos tushadigan, o'ziga o'xshab ketadigan munchoqlarni tanlash ham muhim ahamiyatga ega.



4-rasm. Tugmali zanjirning boshlang'ich holati.

Kerakli materiallar va asboblari: Shishadan tayyorlangan moviy rang shaffof munchoqlar, rang jihatidan bir-biriga uyg'un bo'lgan shaffof va shaffof bo'lmagan “oyoqli” tugmachalar, kapron ip.




Рис. 2

5-rasm. Tugmali zanjirning ikkinchi ko'rinishi.

Taqinchoqni tayyorlash usuli:

Dastlab ipga 12-14 dona tugmani tizib olib, ularni ipning qoq markaziga olib boring. Ipni shunday tutingki, tugmalar bir to'da bo'lib qolsin. Keyin ipning har ikki uchiga teng miqdordagi munchoqlarni tizib chiqing. O'zingizga kerakli miqdordagi munchoqlarni ipga tizib olganingizdan so'ng, ipning uchlarini tuting. Bu taqinchoq shunday uzunlikda bo'lishi kerakki, uni boshdan kirgizib taqish mumkin bo'lsin.






Рис. 3

6-rasm. Tugmali zanjirning uchinchi ko'rinishi.



7-rasm. Tugmali zanjirning to'rtinchi ko'rinishi.

Ba'zi taqinchoqlarni to'qish jarayonida odatiy teshikli tugmalardan ham foydalaniladi. Ikki teshikli yassi tugmaning orqa tomonidan ipni o'tkazib, o'rtasiga har xil Biserlar, turli kichik munchoqlarni qadab, tugmaning ikkinchi teshigidan ipni orqa tomoniga o'tkazish ham mumkin. Bunda betakror gulcha hosil bo'ladi.



8-rasm. Tugmalizanjirning ish tugallangandan keyingi ko'rinishi.

Har qanday marjon shodasini to'kib bo'lgach, ish yakunida zamog va maxsus qistirgich (zastichka) yoki tugmalar kerak bo'ladi. Ularning turli o'lcham shakl va ko'rinishdagisi mavjud.

Bo'yinga taqadigan marjon rasmiy uchrashuvlar uchun yasalmagan bo'lsa, u holda uni zamog yoki maxsus qistirg'ichlar yordamida mustahkamlash shart emas. Uning bir uchiga Biserdan tugma qadab ikkinchi uchiga Biserdan ilmag yasab qo'yish ham mumkin. Qadaladigan maxsus qistirg'ich o'rnida faqat va faqat original va chiroyli tugmadan foydalanish lozim. U taqinchoqning o'lchami va rangiga mos kelishi shart. Bundan tashqari, ba'zi hollarda Biser to'qish san'atida chiroyli tugmalarda munchoq sifatida foydalaniladi.

Ingichka simcha (provolochka) –egiluvchan ashyolarni yasash uchun kerak bo'ladigan material bo'lib, undan gul va o'yinchoqlar kabi narsalar tayyorlanadi. Bunday narsa buyumlarni yasashda asosan mis simdan foydalaniladi.

Karmok ipi (leska) – oson tayyorlanadigan bezaklarni yasashda ishlatiladigan material. Odatda, uning yordamida oddiy (bilakuzuklar va boshqalar), shu bilan birga hatto o'ta murakkab gullar, masalan qo'g'irchoqlar ham yasaladi. Qarmoq ipi juda ham elastik, shuningdek o'ta pishik bo'ladi. Uni qo'l bilan uzish sim yoki ipni uzishdan ancha kiyin.

Ipga to'qilgan taqinchoq va munchoqlar bo'yinga juda yarashib turadi. Ular bo'yinning har bir harakatiga mutanosib tarzda alohida jimjimadorlik kasb etdi. Bundan tashqari, ipdan g'aladonlar, sumkalar, belbog' va tasmalarga Biser tikish jarayonida ham foydalaniladi. Eng maqbul, kapron yoki armaturali iplardan foydalanish kerak.

Biserni tikishda juda ham ingichka bo'lgan igna ham kerak bo'ladi. Yaxshisi biser tikish uchun maxsus mo'ljallangan ignadan foydalanish lozim. №10 tamg'asi ostida ishlab chiqariladi. Aslida odatdagi ignadan foydalansa ham bo'laveradi, ammo ular faqat katta munchoqlarni tikish uchun mo'ljallanganini ham unutmash kerak. Yirik ignadan foydalanganda tikilgan joyda ignaning o'rnini yaqqol ko'rinib qoladi.

Rezinka ip – o'zida ingichka aylanasimon rezinka qoplami mavjud ekanligi bilan ajralib turadi. U xuddi ipak qurt kabi bir necha iplar bilan qoplab olingan. Uning yordamida bilakuzuk va munchoqlar to'qish juda oson. Uning yordamida to'qilgan tayyor taqinchoqning oxiriga maxsus tutqichlar o'rnatish shart emas. Taqinchoq tayyor bo'lgach, uning ikki uchini tugub, tugilgan joyini munchoq donasi ichiga ko'rinmaydigan qilib berkitib qo'yishning o'zi kifoya. Bunday taqinchoq cho'ziluvchan bo'lganligi sababli, hatto eng kichkina taqinchoqni ham bemalol bosh orqali bo'yinga taqish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.O Kamolova, B.B Hamidov “TEKNOLOGIK TALIM FANINI OQITISHDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARNING AHAMIYATI” Вестник магистратуры. 2022-yil. 4-1 (127). 62-67 b

2. D.O. Kamolova “POSSIBILITIES OF USING NANOCAD SOFTWARE IN TECHNOLOGICAL EDUCATION” International journal of artificial intelligence jurnal. 5-tom. 1435-1437 b
3. Ahmadovna, S. D., Tohirovich, R. E., Dilmurodovna, R. D., & Odilovna, K. D. Methodology of using AutoCAD software in developing technical creativity of students. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(4), 661-671.
4. Kamolova, D. (2025). POSSIBILITIES OF USING NANOCAD SOFTWARE IN TECHNOLOGICAL EDUCATION. International Journal of Artificial Intelligence, 1(2), 1435-1437.
5. Odilovna, K. D. (2025). TEXNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI GRAFIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. Global Science Review, 3(1), 19-28.
6. Hamidov, B. B., & Kamolova, D. O. (2022). TEXNOLOGIK TALIMFANINIOQITISHDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARNING AHAMIYATI. Вестник магистратуры, (4-1 (127)), 62-67.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA , PSIXOLOGIYA VA METODIKA

Kurbanova Nasiba Usmonovna , The impact of artificial intelligence on the development of reading culture: A theoretical and empirical analysis	4
Mahmudova Zulfizar Eson Qizi , Maktabgacha ta'limda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	9
Sultonova Gulasal Shodmonovna , Xalq pedagogikasi vositalarining etno-estetik tarbiyadagi o'rni va ahamiyati	13
Azimova Dilnoza Orifovna , Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematikani kasbga yo'naltirib o'qitishda loyihaga asoslangan ta'limning samarali jihatlari	22
Rajabova Gulchexra Salomovna, Muzaffarova Dilshoda Mehriddin qizi , Elektron kutubxona tushunchasi va uning axborot tizimidagi o'rni	23
Tosheva N.T, Muhammadova M.F , Zamonaviy ta'lim muhitida madaniyatlararo munosabatlar uyg'unligi va taraqqiyot tendensiyalari	26
Raxmatullayeva Feruzabonu, Akramova Maftunabonu , Musiqa ta'limida xor ijrochiligini tashkil etishning maktab sharoitiga moslashtirilgan amaliy tizimi	31
Рузиева Наргиза Омонжоновна , Педагогические идеи и реформы Мирзо Улугбека в эпоху Темуридов	36
Nazarova Aziza Sohib qizi , Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat bilan tanishtirishning zamonaviy metodlari	39
Maxmudova Ruxsora Navro'z qizi , Ekologik tarbiya tushunchasining evolyutsion rivojlanishi va zamonaviy pedagogik talqinlari	43
Nadirxanova Nilufar Alesherovna , Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	49
Umedov Shaxzod , Tasviriy san'at darslarida raqamli texnologiyadan foydalanish orqali talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish metodikasi	54
Omonov Qavmiddin Karimovich , Muhandislik grafikasini o'qitishda interaktiv usullardan foydalanish muammolari	57
Abdullayeva Dilrabo Baxtiyor qizi , Zo'ravonlikka duch kelgan o'smirlarning emotsional regulyatsiyasini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari	63
Aslonova Emma Sergeyevna , Pedagog kadrlarning ekologik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	68
Barnoyeva Sevara Uchqun qizi , Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida rivojlantirish: Ta'lim transformatsiyasi sharoitidagi muammo va yechimlar	73
Baxodirova Xalimabonu Baxodirovna , Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	78
Qo'ldoshev Mexriddin Avezmurodovich , Ahmad Donishning "Navodir-ul vaqoe" asarida tarbiya, ilm va inson kamoloti masalalari	83
Choriyeva Hilola Avaz qizi , Oila va maktab hamkorligida nutqida nuqsoni bor bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish mexanizmlari	87
D.I.Normatova , Maxsus kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni	94
Toshmatov Bobur Alisher o'g'li , O'smir yoshdagi o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari	98
Egamberdiyev Murod Farxod o'g'li , Xorijiy va milliy tajribalar asosida boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslarida inklyuziv ta'lim modelini shakllantirish	103
Egamova Gulnoza Istam qizi , Talabalarning ekologik tarbiyasini rivojlantirishning mavjud ahvoli va uni takomillashtirish yo'llari	111
Hakimova Nargiza Supxonovna, Qo'shshiyeva Dilnoza Sulaymon qizi , Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarni rivojlantirish usullari	117
Hojiqurbonova Sevinch Sanjar qizi , Nozmunchoqning tarixi va madaniy ahamiyati	123
Ibadullayeva Shaxnoza Ilxamovna , Zamonaviy tasviriy san'at ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	129